

## O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHALARI

**Rajabaliyeva Iroda Alisherovna**

QarMII magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada mintaqalarda sanoat tarmog‘ini rivojlantirishning hududiy jihatlari, ishlab chiqarish salohiyati, holati va imkoniyatlari o‘rganildi. Hozirgi kunda Respublikada iqtisodiy islohotlarni olib borishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, uning omillaridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatimizning bir nechta hududlaridagi sanoatning tutgan o‘rni statistik ma‘lumotlar orqali o‘rganilib kerakli tavsiyalar berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *sanoatini rivojlantirish, mintaq, sanoat siyosati, investitsiya, makroiqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, moliyaviy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, yalpi sanoat mahsuloti.*

### **ABSTRACT**

*In the article, the territorial aspects of the development of the industrial network in the regions, production potential, state and opportunities were studied. Currently, in carrying out economic reforms in the Republic, the main task is to ensure macroeconomic stability, increase the size of the gross domestic product, effectively use its factors, and improve the structural structure of the economy. The role of the industry in several regions of our country was studied through statistical data and the necessary recommendations were made.*

**Key words:** *industrial development, region, industrial policy, investment, macroeconomics, economic reforms, financial stability, gross domestic product, gross industrial product.*

## **Kirish**

Respublikamizda qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi va milliy iqtisodiyotga investitsiyalarning keng jalb etilishi natijasida nafaqat iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida ham muhim sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi. Iqtisodiyotda tub burilish kechayotgan bir vaqtda iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish va shu asosda jamiyat a‘zolarining moddiy va ma‘naviy farovonligini ta‘minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoatning mavqei alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod](#) O‘zbekiston Respublikasini Prezidenti qarorlari qabul qilindi.<sup>21</sup>

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi va uning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni bilan 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi [1].

Ushbu strategiyaning aynan uchinchi yo‘nalishiga ko‘ra Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘milash va YaIMda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 bavararga oshirish, 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va “Sanoatni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish”ga qaratilgan davlat dasturlarida

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”

mintaqalar sanoatini o‘stirishni ta’minlash, iqtisodiyotni yanada liberlashtirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Chunki, ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo‘nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xom ashyo va o‘simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma - bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo‘lishi kerak.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakatimiz qazilma boyliklari, qurilish xomashyolari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jihatidan boy va yuqori imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Shu asosdan ko‘plab olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz tomonidan mamlakatimizda hududlar sanoatini, ularning imkoniyatlari jihatidan rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan:

D.Sh.Raximov o‘zining “Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari” nomli maqolasida “Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan-mintaqa sanoati raqobatbardoshligini oshirish, o‘z imkoniyatlari hisobiga ichki talabni qondirish, hududlararo, respublika va xalqaro bozorlar ulushini kengaytirish, resurs tejamkor siyosatni ishlab chiqish, budjet yig‘imlarini ko‘paytirish, moliyaviy barqarorlik va hududlar mustaqilligini ta’minlash muhim hisoblanadi.” deb iqtibos keltiradi [5].

B.B.Muhammadjonovning “O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari” nomli maqolasida “Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo‘ljallangan, muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma’lum yer maydoni yoki ishlab

chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalarini ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi” deb ta’kidlaydi [6].

S.A.Sheraliyevaning “Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish” deb atalgan maqolasida hududlar sanoatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar ahamiyati to‘g‘risida va investitsiyalarni jalb etish loyihalarining muhimligi haqida fikr yuritadi [7].

Ko‘plab iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiyot sanoat sektorining muvozanatlashgan tarkibi tizimning maqbul holati hisoblanadi. Muvozanatlashganlik ishlab chiqarish va iste‘mol sohalari o‘rtasidagi nisbatlarning muvozanatini, qayta ishlovchi va undiruvchi ishlab chiqarishlar ulushlarining maqbul nisbatini ko‘zda tutib, ularning muvozanati sanoatda fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mamlakatimiz hududlari sanoatini rivojlantirishdagi ishlab chiqarish korxonalarining o‘rnini hamda ayni damdagi vaziyatni chuqurroq o‘rganildi. Mamlakatdagi hududiy nomutanosibliklar tumanlar bo‘yicha baholandi va bunda qiyosiy tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad mamlakatimiz sanoat siyosatini yaxshilash va davlatning ishlab chiqarish salohiyatini optimallashtirishdir, natijada xalqaro miqiyosdagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatishga erishish orqali hududlar sanoatini holatini yaxshilash.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi, muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘sish sur‘atlarining aholi o‘sish sur‘atlaridan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ta’kidlash lozimki, yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur‘ati, aholining yillik o‘sish sur‘atlaridan yuqori bo‘lgandagina mamlakatda iqtisodiy o‘sish sodir bo‘ladi. Xususan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki

mahsulot va yalpi sanoat mahsuloti kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari mazkur talabga to'la javob beradi.

YaIMning tarmoq tarkibidagi muhim siljishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tarkibda qishloq xo'jaligining ulushi sezilarli darajada pasayib, sanoatning ulushi o'sib bormoqda. Jumladan, 2022 yilda YaIMning tarmoq tarkibida Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 828 054,2 mlrd.so'm (93,2%), mahsulotlarga sof soliqlar 60 287,5 mlrd.so'm (6,8%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 208 452,9 mlrd.so'm (25,1%), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 276 227,0 mlrd.so'm (33,4), sanoat 220 704,3 mlrd.so'm (26,7%), qurilish 55 522,7 mlrd.so'm (6,7%), xizmatlar esa 343 374,3 mlrd.so'mni (41,5%) tashkil etdi. (*1- jadval*)

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tendensiyalarida ayrim yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'sish sur'atlariga nisbatan yalpi sanoat mahsulotining (YaSM) o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, 2019 yilda YaSMning o'sish sur'ati 9,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, YaIMning o'sish sur'ati esa, 8,0 foizni, shuningdek, 2020 yilda YaSMning o'sish sur'ati 8,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, YaIMning o'sish sur'ati esa 8,1 foizni tashkil etdi. Qaralayotgan davrda YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8,1 foizni, YaSMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,8 foizni hamda SQQning o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 5,0 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarining yirik tarmoqlaridan biri sanoat bo'lib unda ish bilan band bo'lgan aholining 1/8 faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ko'p [tarmoqli soha](#), O'zbekistonda uning yuzdan ortiq tarmog'i mavjud. Yalpi ichki mahsulotning 26,7%i sanoatda yaratiladi. Mamlakatimiz sanoati korxonalarida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, qishloq xo'jaligi mashinalari, elektrodvigatellar, [akkumulyatorlar](#), kabellar, ekskavator, yigiruv mashinalari, samalyotlar, mineral o'g'it, sun'iy tola, [oltingugurt kislotasi](#), turli qurilish materiallari, gazlamalar, un, paxta moyi, guruch, kiyim-kechak va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqlarning sanoatda tutgan o'rnini har xil.

*1-jadval*

Yalpi ichki mahsulot (YIM )ning tarmoq tarkibi (jamiga nisbatan foiz hisobida)<sup>22</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	2017 - yil	2018 - yil	2019 - yil	2020 - yil	2021 - yil	2022- yil
<b>YaIM</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Shu jumladan:						
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymat</b>	89,0	89,3	91,5	92,7	93,0	93,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	11,0	10,7	8,5	7,3	7,0	6,8
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon, va baliq xo'jaligi	32,2	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda )</b>	26,5	30,5	33,8	33,4	33,9	33,4
<b>Sanoat</b>	21,1	24,7	27,5	26,8	27,3	26,7
Qurilish	5,4	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
Xizmatlar	41,4	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5

Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur davrda mamlakat sanoati jadal rivojlandi. 2022-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 134,2 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot o'sishidan (129,5 %) yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.<sup>23</sup>

Andijon, Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab chiqarish quvvatini oshirish, investitsiya va tadbirkorlik faolligini (asosan, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, kauchuk va plastmassa, qurilish materiallari, elektron qurilmalar, elektrotexnika ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, metallurgiya) rag'batlantirish hisobiga sanoat tarmog'ida hududlar kesimida yuqori o'sishga (1,4—1,9 baravar) erishildi.

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stastika agentligi <https://stat.uz/uz/>

<sup>23</sup> Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI)

Mahalliy resurslar va hududlar salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakllari maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar, klasterlar keng joriy etildi.

Natijada 2022-yilga kelib mamlakat sanoat ishlab chiqarishida 2017—2022-yillarda tashkil etilgan 20 ta erkin iqtisodiy zonaning ulushi 4,9 foiz, 506 ta klasterning ulushi 5,2 foiz, 317 ta kichik sanoat zonasining ulushi 1,2 foizgacha oshdi.

Mamlakatning 10 ta viloyati (Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari) YHM tarkibida sanoat tarmogʻining ulushi ortdi.

Aksariyat hududlarning (Andijon, Jizzax, Xorazm, Fargʻona, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari) qayta ishlash sanoatida oʻrta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning hisyasi oshdi.

Qoraqalpogʻiston, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi yanada diversifikatsiyalashdi.

Sanoat rivojlanish darajasi past boʻlgan Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlarida aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish respublika parametriga yaqinlashib, mintaqalararo nomutanosibliklar qisqardi.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kelgusida hududlar sanoatini rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqarish omillari (inson kapitali, resurs tejamkor texnologiyalar, innovatsiyalar va samaradorligi tufayli sifat oʻzgarishini taʼminlashdan iborat boʻlishi lozim. Koʻp sonli tadqiqotlarda qayd etilishicha, sanoat iqtisodiy oʻsishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi va aksariyat tadqiqotlardagi mazkur fikr, aynan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning oʻsishiga olib keladi, natijada iqtisodiy oʻsish taʼminlanadi. Sanoat tarmogʻining dinamikligi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari rivojlanishiga ham sezilarli darajada ijobiy



ta'sir etadi. Xususan, sanoatning oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari rivojlanishi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohalarining rivojlanishini rag'batlantiradi. Qayta ishlovchi sanoatning rivojlanishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir etadi.

Hududlarda qayta ishlash sanoati quyi darajada rivojlangan bo'lib, bir tomondan, hududlar bo'yicha tarmoqlarning rivojlanishi va joylashuvi muvozanatlashmagan bo'lsa, boshqa tomondan bir yoqlama, diversifikatsiyalashmagan sanoat ishlab chiqarishi (paxta tozalash, oziq-ovqat va yoqilg'i sanoatiga ixtisoslashuv) shakllangan.[ Viloyat hududlarining bir - biridan va markazdan uzoqda joylashganligi, infratuzilma ta'minotining yuqori darajada emasligi, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash jarayonining sustligi va asosiy fondlarning eskirishi kabi bir qator salbiy omillar viloyatda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishga tushirmasligi, aholining asosiy iste'mol tovarlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ishlab chiqarishning muvofiq emasligi, ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarning yetarli darajada raqobatbardosh emasligi va eksportga yo'naltirilmaganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham viloyat sanoatini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini puxta ishlab chiqish va bunda yuqoridagi muammolarni hisobga olish talab etiladi.

### **Foydaniilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stastitika agentligi <https://stat.uz/uz/>
3. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi <https://qashstat.uz/uz>



4. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI)  
<http://i1.md.uz>
5. Raximov.D.Sh Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari. Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2021
6. Muhammadjonov.B.B O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences – Google Scholar 2022.
7. Sheraliyeva.S.A Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Journal of Academic Research in Educational Science - 2021
8. Amonboev.M Increasing the Effectiveness of Investment Management by Introducing Corporate Governance in Joint-Stock Companies. Journal of International Business Research and Marketing 4 (5), 7-12
9. Rasulov.N, Amonboev.M Corporate Governance and Development: The Case of Uzbekistan Journal of International Business Research and Marketing 1 (6), 31-36